

SHAHARSOZLIKDA TO'SIQSIZ MUHIT VA INKLYUZIV SHAHAR TUSHUNCHALARINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

M.A.Xoliyorova

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
Arxitektura fakulteti SHLA-25-guruh magistranti.
mtoshpolatova221@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaharsozlikda to'siqsiz muhit va inklyuziv shahar tushunchalarining nazariy va metodologik asoslari tahlil qilinadi. Maqolada inklyuziv shaharni yaratishda insonning barcha toifalari, xususan, nogironligi bo'lganlar, yoshlar, qariyalar va ijtimoiy jihatdan zaif guruhlar ehtiyojlari inobatga olinishi zarurligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, maqolada universal dizayn, erkin harakatlanish, ijtimoiy ishtirok va shahar makonida tenglik prinsiplari asosiy kontseptual tamoyillar sifatida keltiriladi. Tadqiqot davomida xalqaro standartlar, shaharsozlik bo'yicha tavsiyalar va ilg'or tajribalar o'rganiladi. Metodologik jihatdan maqolada inklyuziv shaharni baholash va rejalashtirishda ishtirokchi dizayn, jamiyatga asoslangan baholash va makon tahlili kabi metodlar ko'rib chiqiladi. Natijada, inklyuziv va to'siqsiz muhit yaratish faqat inshootlar va transport tizimi bilan cheklanmasdan, balki ijtimoiy barqarorlik, hamjihatlik va teng imkoniyatlarni ta'minlovchi shaharsozlik strategiyasi sifatida amalga oshirilishi zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: inklyuziv shahar, to'siqsiz muhit, universal dizayn, shaharsozlik, kirish mumkinligi, ijtimoiy inklyuziya, ishtirokchi dizayn, shahar barqarorligi, tenglik, metodologik yondashuvlar.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и методологические основы концепций безбарьерной среды и инклюзивного города в современном градостроительстве. Особое внимание уделяется необходимости учитывать потребности всех категорий населения, включая людей с ограниченными возможностями, пожилых, детей и социально уязвимые группы. Основными концептуальными принципами рассматриваются универсальный дизайн, свобода передвижения, социальное участие и равенство в городском пространстве. В статье изучаются международные стандарты, рекомендации по градостроительству и передовые практики, применяемые при создании инклюзивной среды. Методологически рассматриваются подходы оценки инклюзивности города, включая партисипативный дизайн, общественно-ориентированные исследования и пространственный анализ. В результате подчеркивается, что создание инклюзивного и безбарьерного города требует комплексного подхода, объединяющего социальные, пространственные и инфраструктурные аспекты, обеспечивая устойчивое и справедливое развитие городской среды.

Ключевые слова: инклюзивный город, безбарьерная среда, универсальный дизайн, градостроительство, доступность, социальная инклюзия, партисипативный дизайн, устойчивое развитие города, равенство, методологические подходы.

Abstract: *This article examines the theoretical and methodological foundations of barrier-free and inclusive city concepts in contemporary urban planning. The study emphasizes the importance of addressing the needs of all population groups, including persons with disabilities, the elderly, children, and socially vulnerable communities. Key conceptual principles discussed include universal design, freedom of movement, social participation, and spatial equity. The research explores international standards, urban planning guidelines, and best practices applied to the development of inclusive environments. Methodologically, participatory design, community-based assessment, and spatial analysis are examined as approaches to evaluate urban inclusivity. The study concludes that the creation of inclusive and barrier-free cities requires an integrated strategy that combines social, spatial, and infrastructural perspectives, ensuring equitable, resilient, and sustainable urban development.*

Keywords: *inclusive city, barrier-free environment, universal design, urban planning, accessibility, social inclusion, participatory design, urban sustainability, equity, methodological approaches.*

Kirish. Zamonaviy shaharsozlik jarayonida inson omilini markazga qo'ygan yondashuvlar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda shaharlarning barqaror rivojlanishi nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki aholining barcha qatlamlari uchun qulay, xavfsiz va to'siqsiz muhit yaratish bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv shahar va to'siqsiz muhit tushunchalari zamonaviy urbanizatsiya siyosatining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida shakllanmoqda.

Inklyuziv shahar — bu nafaqat jismoniy imkoniyatlar jihatidan, balki ijtimoiy, madaniy va ma'naviy jihatdan ham barcha fuqarolar uchun teng sharoit yaratadigan urbanistik tizimdir. Unda har bir inson — yoshidan, sog'lig'idan, ijtimoiy maqomidan yoki jismoniy imkoniyatidan qat'i nazar — shahar hayotida to'laqonli ishtirok etish imkoniga ega bo'ladi. Bunday yondashuv inson huquqlariga asoslangan ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillarini amalda ro'yobga chiqaradi.

To'siqsiz muhit konsepsiyasi esa shahar makonida harakatlanish, xizmatlardan foydalanish va ijtimoiy faoliyatda qatnashishda hech qanday jismoniy, kommunikativ yoki psixologik to'siqlar mavjud bo'lmashligini anglatadi. Bu, o'z navbatida, universal dizayn tamoyillari — “hamma uchun qulay muhit” g'oyasiga tayanadi. Bunday muhit nafaqat nogironligi bo'lgan shaxslar, balki bolalar, qariyalar, homilador ayollar va vaqtincha nogironlikka ega bo'lgan fuqarolar uchun ham teng imkoniyatlar yaratadi.

Dunyo miqyosida inklyuziv shaharsozlik konsepsiyasi BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari” (SDG-11) — “Barqaror va inklyuziv shaharlar va aholi punktlari” g'oyasi bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli, O'zbekistonda ham so'nggi yillarda shahar infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ijtimoiy arxitektura yechimlarini takomillashtirish va barcha uchun qulay sharoit yaratish yo'lida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

So‘nggi yillarda inklyuziv shaharsozlik va to‘siqsiz muhit masalalari xalqaro miqyosda ilmiy tahlil va amaliy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishiga aylangan. Jahon tajribasiga nazar tashlaganda, urbanistik rivojlanishning asosiy maqsadi shahar muhitini barcha uchun ochiq, xavfsiz va qulay qilishdan iborat ekanligi ko‘rinadi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan “Barqaror rivojlanish maqsadlari” (SDG-11) da inklyuziv va barqaror shaharlar konsepsiyasi ilgari surilgan. Shuningdek, Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) va UN-Habitat tomonidan ham shahar infratuzilmasini nogironligi bo‘lgan shaxslar, qariyalar va boshqa ijtimoiy guruhlar uchun moslashtirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda inklyuzivlik va to‘siqsiz muhit tamoyillari shaharsozlik siyosatining muhim qismiga aylanmoqda. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonun, “Aholi bandligi dasturi” va “Shaharsozlik kodeksi”da mazkur tamoyillar huquqiy asos sifatida mustahkamlangan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan “Aholining barcha toifalari uchun qulay infratuzilma yaratish konsepsiyasi” ham urbanistik rivojlanish jarayonida inkluzivlikni ta‘minlashni ko‘zda tutadi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, shaharsozlikdagi inklyuzivlik faqat jismoniy kirish imkoniyati bilan cheklanmaydi, balki ijtimoiy ishtirok, madaniy integratsiya va kommunikatsion ochiqlik kabi omillarni ham o‘z ichiga oladi. Masalan, xorijiy olimlar — Jeyn Jeykobs, R. Geyl va X. Lefevr o‘z tadqiqotlarida shahar makonining “ijtimoiy adolat” tamoyili asosida tashkil etilishini ilgari suradilar. Ularning fikricha, inklyuziv shahar – bu faqatgina arxitektura yechimi emas, balki inson huquqlari, teng imkoniyatlar va ijtimoiy ishtirok tamoyillarini uyg‘unlashtiruvchi tizimdir.

Metodologik jihatdan ushbu tadqiqot kompleks yondashuv asosida olib boriladi. Ya‘ni, shaharsozlik, falsafa, ijtimoiy psixologiya va me‘morchilik fanlarining o‘zaro integratsiyasi asosida inklyuziv shahar muhitining ilmiy-nazariy modeli shakllantiriladi. Tadqiqotda tizimli tahlil, taqqoslash usuli, kontent tahlil, shuningdek empirik kuzatish va amaliy modellashtirish usullari qo‘llaniladi. Ushbu metodlar yordamida inklyuzivlikni ta‘minlovchi asosiy mezonlar — erkin harakatlanish, ijtimoiy kirish imkoniyati, infratuzilma moslashuvchanligi va jamoatchilik ishtiroki darajasi aniqlanadi.

Natija va muhokamalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy shaharsozlikda inklyuzivlik tamoyillarini to‘liq joriy etish faqatgina texnik me‘yorlar bilan emas, balki ijtimoiy ong va boshqaruv yondashuvlarini o‘zgartirish orqali amalga oshiriladi. Shahar infratuzilmasini nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar, bolalar va boshqa ijtimoiy guruhlar ehtiyojlariga moslashtirish shunchaki arxitektura masalasi emas, balki inson qadriyatlarini tan olish masalasidir. Shu jihatdan qaraganda, inklyuziv shahar modeli demokratik jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va ijtimoiy tenglik ko‘rsatkichidir.

O‘zbekiston shaharsozlik tajribasida keyingi yillarda bu yo‘nalishda muhim qadamlar tashlanmoqda. Xususan, yangi turar joy massivlari va ijtimoiy obyektlar loyihalarida panduslar,

liftlar, Braille yozuvidagi ko'rsatkichlar, ovozli signalizatsiyalar kabi elementlarning joriy etilishi bu boradagi ijobiy o'zgarishlardandir. Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud amaliyotda inklyuziv dizayn faqat ayrim obyektlarda cheklangan shaklda tatbiq etilmoqda. Bu esa inklyuzivlikni shahar tizimining umumiy falsafasiga aylantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, inklyuziv shaharsozlikning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun uchta asosiy omil muhim ahamiyatga ega: birinchidan, normativ-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, ikkinchidan, me'morlar va muhandislar o'rtasida inklyuzivlik madaniyatini shakllantirish, uchinchidan, aholining o'zini inklyuziv muhit yaratuvchi faol subyekt sifatida anglashini ta'minlash. Shu orqali to'siqsiz muhit yaratish tashabbusi markazdan tashqariga — jamoatchilik va mahalla darajasiga ham tarqaladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, inklyuziv shaharlar iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan barqarorroq bo'ladi, chunki ular turli guruhlarining faol ishtirokini rag'batlantiradi. Bunday muhitda nogironligi bo'lgan shaxslar, homilador ayollar, bolalar va keksalar o'zlarini shahar hayotining teng huquqli ishtirokchilari sifatida his qiladilar. Shunday qilib, inklyuziv shaharsozlikning asosiy natijasi — bu jamiyatning umumiy farovonlik darajasining oshishidir.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida xulosa qilish mumkinki, shaharsozlikda to'siqsiz muhit va inklyuzivlikni ta'minlash masalasi hozirgi urbanistik taraqqiyotning eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Inklyuziv shahar tushunchasi faqatgina arxitektura va muhandislik yechimlari bilan cheklanmay, balki inson huquqlari, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar tamoyillarini o'z ichiga oladi. Shahar infratuzilmasining inklyuzivlik darajasi bevosita aholining ijtimoiy faolligi va davlat siyosatining insonparvarlik ruhiga bog'liqdir. Shu bois, inklyuziv shahar konsepsiyasini amalga oshirish uchun davlat boshqaruvi, shaharsozlik siyosati va jamoatchilik o'rtasida barqaror hamkorlik mexanizmlarini yaratish zarur. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, to'siqsiz muhitni shakllantirish orqali nafaqat nogironligi bo'lgan shaxslarning hayot sifati yaxshilanadi, balki jamiyatda bag'rikenglik, birdamlik va ijtimoiy mas'uliyat madaniyati ham kuchayadi. Demak, inklyuziv shahar — bu kelajak shaharsozligining yangi paradigmasi bo'lib, u ijtimoiy adolat, ekologik barqarorlik va insonparvarlik tamoyillarini uyg'unlashtirgan rivojlanish modelidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Ashurov, A.Olimov. Toshkent shahrida shaharsozlik jarayonlarining ekologik oqibatlari. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot, DOI:10.5281/zenodo.17439321. 2025.
2. S.Akbarova, K.Akbarova. Inklyuziv ta'lim va uni oliy ta'lim muassasalarida joriy etish xususiyatlari. Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal, 2024-yil soni.
3. A.A.Xaitov. O'zbekiston shaharlarida ekologik barqarorlik va urbanizatsiya muammolari. O'zbekiston Arxitektura va Qurilish Jurnal, 2-son, 45–52-betlar.2023.
4. B.B.Mamatov. Barqaror shaharsozlik tamoyillari va ularning O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi. Ijtimoiy Fanlar va Innovatsiyalar Elektron Jurnal, 3(6), 120–128. 2022.

5. D.S.Karimova. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun to‘siqsiz muhit yaratishning ijtimoiy-falsafiy asoslari. O‘zbekiston Falsafa Jamiyati Axborotnomasi, 1(4), 87–94. 2021.
6. T.N.Ismoilova. Inklyuziv dizayn konsepsiyasi va uning shaharsozlikda qo‘llanishi. Arxitektura va Dizayn Innovatsiyalari Jurnal, 2(3), 56–63. 2023.
7. Sh.A.Yo‘ldoshev. O‘zbekiston urbanizatsiya jarayonlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili. Falsafa va Huquq, 3(2), 41–49. 2020.
8. R.I.Rasulov. Aholining ijtimoiy qatlamlari uchun qulay shahar muhiti yaratish konsepsiyasi. Ijtimoiy Taraqqiyot va Barqarorlik Jurnal, 9(1), 101–109. 2024.